

**TIJORAT BANKLARIDA ISTE'MOL KREDITLARINI SAMARALI
BOSHQARISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI
(O'ZSANOATQURILISHBANK AJ TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)**

Yusupova Nazokat Uzakbayevna

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi **Biznesni boshqarish**
(Master of Business Administration-MBA) Banking 23-02-guruh magistranti*

Annotatsiya: *Globallashuv jarayonida iste'mol kreditlariga bo'lgan aholining ehtiyojlarini oshirib bormoqda. O'zbekistonda ham ko'plab kredit mahsulotlari bor hamda ular orasida iste'mol krediti ham yuqori ulushga ega. Bugungi kunda ommabop bo'lgan iste'mol kreditlari ham yildan-yilga o'z xilma-xilligini oshirib bormoqda. Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan iste'mol kreditlari va ularni takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.*

Аннотация: *В процессе глобализации растет потребность населения в потребительских кредитах. Узбекистан также имеет большое количество кредитных продуктов, среди которых потребительский кредит также имеет высокую долю. Популярны сегодня потребительские кредиты также с каждым годом увеличивают свое разнообразие. В этой статье рассматриваются потребительские кредиты, предлагаемые коммерческими банками, и вопросы их улучшения.*

Abstract: *In the process of globalization, the population's need for consumer loans is growing. Uzbekistan also has a large number of credit products, among which consumer credit also has a high share. Consumer loans, which are popular today, are also increasing their variety every year. This article examines consumer loans offered by commercial banks and how they can be improved.*

Kalit so'zlar: *Tovarli iste'mol krediti, moliyaviy iste'mol krediti, bo'lib to'lash*

Ключевые слова: *товарный потребительский кредит, финансовый потребительский кредит, рассрочка*

Keywords: *commodity consumer credit, financial consumer credit, installment*

plan

Kirish

Iste'mol kreditlari – jismoniy shaxslarning turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar hisoblanadi. Ushbu kredit turlari aholi turmush darajasini oshirish, ichki talabni rag'batlantirish va iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Iste'mol krediti mijozlarga ularning iste'mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun beriladi, jumladan:

- iste'mol tovarlari sotib olish (uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika vositalari, mebel va inter'er buyumlari va boshqalar);
- uy-joylarni ta'mirlash bilan bog'liq qurilish mollari sotib olish va/yoki uy-joylarni ta'mirlash xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish;
- boshqa iste'mol maqsadlari.

Tijorat banklarida iste'mol krediti turli shartlar asosida mijozlarga beriladi. O'zsanoatqurilishbank AJ iste'mol tovarlari, ishlar va xizmatlar sotib olish uchun 200 mln so'mgacha ajratiladi. Yillik foiz stavkasi ish haqi loyihasi doirasida: **26%**, rasmiy daromadga ega mijozlar uchun **27%**, O'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun: 28%, imtiyozli davr 3 oygacha (differensial grafikda) to'lov grafigi differensial/annuitet usulda hisoblanadi. Kredit ta'minoti mol-mulk garovi Qo'shimcha shartlar qarz oluvchining avvalgi to'liq so'ndirilgan va joriy kreditlari bo'yicha 3 va undan ko'p marotaba 90 kundan ortiq muddatda to'lanmagan qarzдорlikka yo'l qo'yilganligi aniqlangan taqdirda kredit ajratish rad etiladi.

Muhokama va natijalar

Tijorat banklari tomonidan taklif qilinadigan iste'mol kreditlari quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- **Maishiy texnika va elektronika xarid qilish uchun kreditlar**
- **Avtokreditlar**
 - yangi yoki ishlatilgan avtomobil sotib olish uchun
- **Ta'lim kreditlari** – o'quv yurtlarida ta'lim olishni moliyalashtirish uchun

- **Ipoteka kreditlari** – uy-joy sotib olish yoki qurish uchun
- **Kartali kreditlar (overdraft, kredit kartalari)**
- **Mikrokreditlar** – kichik miqdordagi, qisqa muddatli kreditlar

Har bir bank iste'mol kreditlarini berishda o'ziga xos shartlarni belgilaydi. Kredit miqdori va muddati, foiz stavkalari va to'lov jadvali, garov va kafolat talablari, kredit olish uchun zarur hujjatlar, mijozning kredit tarixi va to'lov qobiliyati, tijorat banklarining iste'mol kreditlarini rivojlantirish jarayonida quyidagi muammolar kuzatilishi mumkin

- Yuqori foiz stavkalari
- Kredit to'lovlarini qaytarishdagi qiyinchiliklar
- Kredit tarixi tizimining yetarlicha rivojlanmagani
- Mijozlarning moliyaviy savodxonligining pastligi
- Noqonuniy kredit berish va firibgarlik holatlari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga [ko'ra](#), joriy yilning 2024-yil to'qqiz oyida milliy valyutada rasmiylashtirilgan iste'mol va avtokreditlar hajmi ikki barobardan ko'proq kamaydi.

- Yanvar-sentabr oylarida fuqarolar tomonidan 12,79 trln so'mlik avtokreditlar olindi, bu o'tgan yilning shu ko'rsatkichidan 2,36 barobar kamdir.
- Eng yuqori oylik ko'rsatkichlar yanvar, aprel va may oylariga to'g'ri keldi, o'shanda 1,7 trln so'm chiqarilgan.
- Iste'mol kreditlari 2,4 barobarga — 32,54 trln so'mdan 13,05 trln so'mga qisqardi. Eng ko'p chakana kreditlar may oyida (1,8 trln so'm) berilgan. nisbatan uch baravardan ko'proq kamaydi.

Давр	Жами	шундан:							
		Ипотека кредити	Истеъмолад кредити	шу жумладан:		Микроқарз	Микрокредит	Овердрафт	Бошқа
				Автокредит	Таълим кредити				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2023 йил	100 234,8	16 851,0	40 148,0	36 557,3	2 819,4	28 749,6	11 379,6	674,4	2 432,2
Январь	4 706,7	713,3	2 298,6	2 121,4	146,2	1 461,9	43,0	63,4	126,6
Февраль	6 410,3	1 169,1	2 787,2	2 522,2	201,1	1 782,1	422,2	59,8	190,0
Март	8 018,0	1 340,7	3 101,2	2 866,7	134,1	2 205,3	1 083,3	59,9	227,6
Апрель	8 373,0	1 172,7	3 474,8	3 315,5	80,5	2 424,7	1 069,3	49,9	181,5
Май	10 455,0	1 349,7	4 619,9	4 471,2	54,4	2 799,1	1 455,7	50,7	179,9
Июнь	7 986,6	1 204,2	3 292,6	3 190,7	20,3	2 322,7	964,9	51,1	151,1
Июль	9 345,9	1 435,5	4 180,7	4 070,5	8,0	2 677,8	826,6	58,0	167,2
Август	10 282,5	1 878,8	4 573,3	4 401,2	89,1	2 746,5	844,6	55,4	183,8
Сентябрь	9 503,8	1 907,6	4 214,4	3 273,5	895,7	2 379,7	732,7	39,8	229,6
Октябрь	9 224,4	1 731,9	3 119,1	2 192,7	887,4	2 742,4	1 254,9	61,8	314,3
Ноябрь	8 352,3	1 525,6	2 559,5	2 285,4	243,9	2 618,0	1 350,1	58,6	240,6
Декабрь	7 576,4	1 421,9	1 926,6	1 846,3	58,6	2 589,4	1 332,4	65,9	240,2
2024 йил	73 141,3	11 737,2	13 505,7	12 797,4	595,0	31 868,5	12 260,1	865,9	2 903,8
Январь	6 269,2	1 055,9	1 743,3	1 700,9	30,5	2 598,4	549,5	82,8	239,3
Февраль	6 817,3	1 489,2	1 379,1	1 283,0	84,5	2 652,6	972,6	92,2	231,5
Март	6 977,4	984,7	1 375,1	1 251,7	112,6	2 913,9	1 367,6	86,7	249,4
Апрель	8 495,3	1 152,0	1 778,1	1 675,6	91,1	3 492,6	1 662,9	98,2	311,5
Май	8 612,7	1 038,5	1 837,3	1 772,2	58,9	3 738,1	1 578,4	98,7	321,7
Июнь	8 100,1	1 174,2	1 254,4	1 228,2	21,0	3 420,5	1 847,3	103,5	300,3
Июль	9 374,7	1 652,4	1 431,5	1 411,7	14,1	4 429,4	1 389,0	100,9	371,4
Август	9 281,9	1 461,2	1 374,4	1 331,4	34,3	4 416,0	1 536,4	106,0	388,0
Сентябрь	9 212,5	1 729,2	1 332,4	1 142,8	148,0	4 207,0	1 356,3	97,0	490,7

1-rasm. Tijorat banklarida iste'mol kreditlarining 2024-yil 9 oyida ajratilgan hajmi 2023-yilning sentabr oyida Markaziy bank banklarga avtokreditlar ajratish bo'yicha talablarni kuchaytirgan edi. Shunday qilib, banklarning kredit portfelidagi avtomobil sotib olish uchun qarzlarning ulushi kreditlar konsentratsiyasi bilan bog'liq tavakkalchiliklar tufayli 25%dan oshmasligi kerak.

Joriy yil 1-iyuldan boshlab Markaziy bank aholiga kreditlar berish bo'yicha talablarni kuchaytirdi. Regulyator kredit bo'yicha o'rtacha to'lovlarning qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadiga nisbati orqali hisoblanadigan qarz yuki ko'rsatkichini joriy qildi.

Ushbu parametr jismoniy shaxslarga mikrocredit berishda allaqachon qo'llaniladi. Mikroqarzlarni berish kredit oluvchining daromadi miqdorining yarmi bilan cheklandi.

Xulosa

Tijorat banklarida iste'mol kreditlarini samarali boshqarish va takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarni ko'rib chiqish mumkin:

□ Kredit oluvchilarning to'lov qobiliyatini aniqlash uchun **zamonaviy skoring tizimlarini** joriy etish

□ Kredit tarixi va mijozlarning moliyaviy barqarorligini baholash tizimini kuchaytirish

□ “Yomon” kreditlarning oldini olish uchun monitoring va nazorat tizimini yaxshilash

Foiz siyosatini optimallashtirish

• Iste'mol kreditlari bo'yicha **raqobatbardosh foiz stavkalarini shakllantirish**

- Mijozlarga **moslashuvchan to'lov grafiklari** taklif qilish
- Muddatidan oldin to'lov qilish imkoniyatlari bo'yicha qulay shart-sharoit yaratish

Raqamli texnologiyalarni joriy etish

- Onlayn kredit berish tizimlarini takomillashtirish va avtomatlashtirish
- Mobil ilovalar orqali kredit ajratish, to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish
- Blokcheyn texnologiyalaridan foydalanib kredit jarayonining shaffofligini ta'minlash

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 6-maydagi “Iste'mol krediti to'g'risida”gi O'RQ-33-son Qonuni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/10046872>.
2. Комиссарова М.В., Даниленко С.А. Банковское потребительское кредитование. Учебно-практическое пособие. -М.: Юстицинформ, 2011. -с. 11. ISBN 978-5-7205-1092-3.
3. Лаптева Е.В. Кредитование физических лиц в Российской Федерации: статистический аспект и прогнозирование. –Волгоград: Изд-во «Сфера», 2022.- с. 14.